



Maqolni davom ettiring.

Onaning ko'ngli ... ,  
Bolaning ko'ngli ... .

Maqolni o'qing va mazmunini izohlang.



## Ona qarzi

*(Hind xalq ertagi)*

Rafiq degan bola bo'lgan ekan. Bir kuni u dadasingin nimalardir yozayotganini ko'rib, qiziqib so'rabdi:

– Dada, nima qilyapsiz? Hadeb nimalarni yozyapsiz?

Dadasi shunday javob beribdi:

– Hisobotlarni to'ldiryapman, o'g'lim.

Rafiq hali kichkina bo'lgani uchun "Hisobot" so'zini tushunmas ekan.

– "Hisobot" nima degani, dada? – deb so'rabdi u.

– Hisobotmi? – debdi dadasi o'g'liga qarab. –

Buning ma'nosi shuki, men davlat ishini qilaman, qilgan ishim uchun davlat menga pul to'laydi. Lekin men qanday ishlar qilganimni, kimlarga qanday ishlar qildirganimni davlat qayerdan biladi? Shuning uchun

men falon-falon ishlar bajarildi, shu ishlar uchun menga falon rupiya miqdorida pul to'lanishi kerak, deb qog'oz to'ldiraman. Ana shu qog'oz "Hisobot" deyiladi.

Buni eshitib, Rafiqning dilidan shunday o'ylar kechibdi: "Dadam qilgan ishlari uchun davlatdan pul olar ekanlar, demak, men ham uyda qilgan ishlarmim uchun oyimdan pul olishim kerak. Axir, ba'zida oyim kechalari ham ish buyurgan paytlari bo'lgan-ku?"

Shundan keyin Rafiq bir varaq qog'oz bilan ruchka olibdi-da, o'zicha shunday deb yozibdi:

"Oyimning Rafiqdan qarzi:

Oyim Rafiqdan quyida keltirilgan miqdorda pul qarz bo'lib, uni to'lab qo'yishi lozim:

Bir oyda ukamni ovqatlantirganim haqi – 1 rupiya 00 paysa,

Bir oyda do'kondan narsa xarid qilib kelganim haqi – 1 rupiya 00 paysa,

Bir oyda non keltirib berganim haqi – 0 rupiya 80 paysa,

Hammasi bo'lib, 2 rupiya 80 paysa bo'ladi".

Rafiq "Hisobot"ni oyisi qand-shakar saqlaydigan javon ichiga tashlab qo'yibdi. Ertasiga kelib o'sha joyni qarasa, pul yotibdi! Rafiq shosha-pisha pulni olibdi-da, sanab ko'ribdi. Roppa-rosa ikki rupiya sakson paysa. U o'zida yo'q suyunibdi. Suyunmay bo'ladimi? Bu yoqdan "Hisobot" yozdi, bu yoqdan mehnat haqi oldi. Lekin pul bilan birga oyisi bir

qog'oz ham qo'ygan ekan. Rafiq qog'ozni olib undagi yozuvni o'qiy boshlabdi:

“Rafiqning oyisidan qarzi:

Rafiq oyisidan quyidagi miqdorda qarzdor bo'lib, qarzini tezda to'lashi kerak:

O'n ikki yilgacha uni tarbiya qilish haqi – 0 rupiya 00 paysa,

O'n ikki yilgacha uni boqib, qornini to'yg'izish haqi – 0 rupiya 00 paysa,

O'n ikki yilgacha unga kiyimlar, sut, qatiq va boshqa mayda-chuydalar olib berish haqi – 0 rupiya 00 paysa,

Hammasi bo'lib, 0 rupiya 00 paysa”.

Rafiq hang-u mang bo'lib qolibdi. U yugurib borib, o'zini oyisining oyog'iga tashlab:

– Oyijon! Meni kechiring, ahmoqlik qilibman. Xato qilibman! – debdi yig'lamoqdan beri bo'lib. – o'ylab qarasam, bir zamonda bajargan xizmatimni ham minnat qilibman. Lekin siz ko'zimni ochdingiz, bo'ynimdagи sizning qarzingizni umr bo'yi ham to'lay olmayman. Uncha-muncha qilgan ishlarim esa, bu qarzning mingdan biriga ham arzimaydi.

Soddadil o'g'lining og'zidan bu gaplarni eshitib, onasi dil-dilidan suyunibdi va o'g'liga shunday debdi:

– O'g'lim, halol bo'l. Insofli bo'l, hech kimga yomonlik qilma. Rostgo'y bo'l. Birovlarning dilini og'ritguvchi dilozor bo'lma. Mening sendan tilagim shu.

Rafiq: "Aytgan gapingizdan chiqmayman, siz o'ylaganday odam bo'lishga harakat qilaman", – deb oyisiga so'z beribdi.



1. Ertak nima haqida ekan?
2. Ota va o'g'il nima haqida suhbatlashishdi?
3. Nima uchun Rafiq onasiga "Hisobot" yozdi?
4. Rafiqning "Bo'ynimdagи sizning qarzingizni umr bo'yи ham to'lay olmayman", degan fikrga kelishiga nima sabab bo'lган?
5. Siz onangizni suyuntirish uchun nima qilasiz?



**rupiya** – pul birligi



Ertakdan topib o'qing:

1. Ota va bola suhbatini;
2. Rafiqning onasiga yozgan hisobotini;
3. Onasining yozgan gaplarini;
4. Rafiqning onasi bilan suhbatini.

*Ko'zimni ochdingiz, minnat qilmoq*

jumlalarining mazmunini izohlang.

Fikrni davom ettiring: *Ona borki...*



Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering.